

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkar Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING "KONI LAZZAT XONI NE'MAT" ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING "AL-KASHSHAF" ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O'RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A'ZAM MEROSI: BAG'RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA'LIMDA INSONPARVARLIK G'OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: "SHUM BOLA" ASARINING O'ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO'ZLASHUV NUTQIDA SO'Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE'RIYATINING G'OYAVIY-MAZMUNIIY MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZIYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning XORIJIIY MODELLARI VA MILLIIY AMALIYOT UCHUN XULOSALAR	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

ANALYSIS OF RELIGION AND STATE RELATIONSHIP IN THE FIGHT AGAINST IDEOLOGICAL THREATS

Umarova Feruza

Tashkent State Agrarian University

Senior Lecturer of the Department of Social Sciences and Humanities

Abstract. The article analyzes the content of the concept of "relationship between religion and the state," the socio-philosophical problems of ensuring the stability of the state and society, and the rational provision of these relations in the fight against information and ideological threats. The experience of the USA, France, Germany, and Muslim countries in organizing relations between the state and religion, their effective use in our country, and the use of the religious and educational factor in the fight against ideological threats were also studied.

Keywords: religion, state, society, youth, stability, information and ideological threats, confessions, relations between religion and the state, the path of national development, tolerance, humanism, terrorism, extremism.

MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI

Umarova Feruza

Toshkent davlat agrar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada "din va davlat munosabatlari" tushunchasining mazmuni, davlat va jamiyat barqarorligini ta'minlash hamda axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ushbu munosabatlarni oqilona ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat va din munosabatlarini tashkil qilishda AQSh, Fransiya, Germaniya va musulmon mamlakatlarining tajribalari, mamlakatimizda ulardan samarali foydalanish, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda diniy-ma'rifiy omildan foydalanish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: din, davlat, jamiyat, yoshlar, barqarorlik, axborot-mafkuraviy tahdidlar, konfessiyalar, din va davlat munosabatlari, milliy rivojlanish yo'li, bag'rikenglik, insonparvarlik, terrorizm, ekstremizm.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N17>

Kirish. Bugungi zamonaviy dunyoda axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning yangicha strategiyasida din, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi konfiguratsiyasi butun bir ijtimoiy-siyosiy makonni qayta shakllantirishni aks ettiradi, bu ijtimoiy taraqqiyotning imkoniyatlari haqida kengroq axborotni rag'batlantirish, aniqlik va universallik munosabatlariga bog'liq. Bugungi globallashuv jarayonida zamonning murakkabligi va qiyinchiliklari ekstremistik tahdidlardan ijtimoiy qadriyatlarga, diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanat masalasini, dunyoviylik tamoyilining nozik chegaralarini ko'rib chiqishdan ijtimoiy jihatdan sinalgan ma'naviy-axloqiy me'yorlarga ko'plab diniy ziddiyatlarda o'z aksini topmoqda. Ontologik, institutsional va sivilizatsiyalashgan prognozlardagi diniy hamda konfessional parametrlar yangi ijtimoiy strukturalarni yaratishning usullari va ma'nolari sifatida talqin qilinadi. Bugungi kunda ba'zi davlatlarda

davlat, jamiyat va din o'rtasidagi munosabatlarda diniylik va dunyoviylik muvozanatini ta'minlash mexanizmlarining yaratilmaganligi yoki to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi faqat ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiribgina qolmay, balki, davlat, jamiyat va din o'rtasidagi munosabatlarning yangi mexanizmlarini yaratish hamda takomillashtirish masalalarini kun tartibiga qo'ymoqda[1].

XXI asr boshlariga kelib iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot sohalaridagi o'zaro yaqinlashuv, muloqot va ta'sir o'zining yuqori nuqtasiga yetdi. Islom mafkurasining nafaqat musulmon dunyosida balki, undan tashqarida ham ta'sirining tobora o'sib borayotganligi shundan dalolat bermoqda. Iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarning globallashuvi sifatida dunyodagi ijtimoiy jarayonlarga islom mafkurasining ta'siri ortib borayotganligi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorda qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi"[1.253]. Bu vaziyatda, dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta'minlash dolzarb masalalardan biri sifatida kun tartibiga chiqishi tabiiydir. Masalaning o'ziga xosligi shundaki, jamiyatda tolerantlikni, jumladan, diniy bag'rikenglikni ta'minlamasdan turib dunyoviylik va diniylik muvozanatiga erishish mumkin emas.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekistonda axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta'minlashning ahamiyati, uni amalga oshirishda samarali usul va texnologiyalaridan foydalanish hamda mamlakatimizda mafkuraviy jarayonlar, g'oyaviy tahdidlar, yoshlar tarbiyasida diniy-ma'rifiy qadriyatlarning o'rni, zamonaviy mafkuraviy muammolar tahliliga bag'ishlangan bir qator ijtimoiy-falsafiy va siyosiy qarashlar o'zbek olimlari tomonidan o'rganilgan. Jumladan, T.Karimning "Dunyoviylik falsafasi" (Dunyoviylik falsafasi: Maqolalar to'plami. – Toshkent: TDIU), "Islom ensiklopediya" (– Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004), Sh.Yovqochevning "Siyosat va din" (– Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2011.), "Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari" (O'quv qo'llanma. Toshkent islom universiteti. – Toshkent, 2013.), A. Mavrulovning "Ma'naviy tahdidlarning oldini olishda ma'naviy-axloqiy muhitning ahamiyati" (– Toshkent: "Muharrir nashriyoti", 2018) va M.Quronovning "Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish" (– T.: 2017. –284 b) nomli asarlarida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim va tarbiyaning imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O.Bozorovning "Milliy g'oya va targ'ibot samaradorligi" (–Toshkent: Ma'naviyat, 2018. –32 b) A.Muxtorovning "Globallashuv sharoitida ma'naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari" (–Toshkent: Ma'naviyat, 2015.– 31 b) S. Otamurotovning "Globallashuv va milliy-ma'naviy xavfsizlik" (–Toshkent: O'zbekiston, 2013. – 456 b), Sh. Turaevning "Yangi O'zbekiston: ma'naviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar" (– Toshkent: "Afzalzoda books" nashriyoti, 2023. –268 b.) nomli tadqiqotlarida globallashuv sharoitida g'oyaviy o'zgarishlar tendensiyalari, ong va tafakkurdagi o'zgarishlar tahlil qilingan[3].

jamiyatda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim va tarbiyaning imkoniyatlari MDH mamlakatlari doirasida A.Ignatenko, I.Ponkin R. Lunkin, M. Laryuell, V. Yeruslimskiy, A. Musin, M. Əuezo, R.Aliev, F.Mamedov va boshqa shu kabi olimlar tomonidan bu muammolar batafsil o'rganilgan. Mazkur olimlar olib borgan tadqiqot natijalaridagi yakdil fikr shundan

iboratki, hozirgi davrda butun insoniyat hayotida din va davlat munosabatlarida o'zgarishlar ro'y bermoqda, shu bilan birga bu munosabat zahirida xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq ko'plab mafkuraviy urush, din niqobidagi terrorizm, axborot quroli va boshqalar bilan bog'liq global xavflarni ham kuchayishiga olib kelmoqda[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim va tarbiya tizimining o'rni va imkoniyatlarini o'rganish maqsadida kompleks tadqiqot usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida **tarixiy-tahliliy metod** orqali ta'lim va tarbiyaning turli davrlardagi vazifalari va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashdagi rolini o'rganish orqali, bugungi kundagi ahamiyati va zarurligini asoslashga harakat qilindi. **Kontent tahlili (mazmunli tahlil)** asosida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari, ta'lim sohasidagi strategiya va dasturlar, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tashkilotlarning faoliyatiga oid materiallar tahlil qilindi. **Komparativ tahlil (solishtirma tahlil)** asosida turli mamlakatlar tajribalari o'rganilib, ularda mafkuraviy tahdidlarga qarshi qanday ta'lim-tarbiya mexanizmlari joriy etilgani tahlil qilindi. **Tizimli yondashuv** asosida mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda ta'lim va tarbiyani bir-biri bilan bog'liq va hamkor tizimlar sifatida o'rganishga asoslangan.

Natijalar va muhokama. "Bag'rikenglik" tushunchasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, bu tushuncha ilmiy faoliyat va ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, siyosat va siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, ilohiyot, ijtimoiy axloq, qiyosiy dinshunoslik kabi fanlar doirasida keng istifoda etiladi. Lotincha "tolerare", ya'ni "chidamoq", "sabr qilmoq" ma'nosini anglatgan "tolerantlik" so'zi, asosan, biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shaxsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi. Xususan, ushbu tushuncha deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi ma'no kasb etib, "chidamlilik", "bardoshlilik", "toqatlilik", "o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish", "muruvvatlilik", "himmatlilik", "kechirimlilik", "mehribonlik", "hamdardlik" kabi ma'nolarga ega[5].

Tolerantlik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki bag'rikenglik serqirra, ayni paytda plyuralistik fenomen bo'lib, o'zaro dialektik bog'liq bo'lgan juda ko'p namoyon bo'lish shakllariga ega. Toqat, sabr, tinchliksevarlik, murosas, do'stlik, hamjihatlik, ishonch, hurmat, tushunish, bilish, anglashga intilish va boshqa shu kabi axloqiy fazilatlar hamda ongli intilishlar shular jumlasidandir. Davlat va jamiyat darajalarida namoyon bo'ladigan bag'rikenglik o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishini ta'kidlash joiz. Xususan, demokratik davlatda irqi, millati, dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa farqlovchi belgilaridan qat'iy nazar barcha fuqarolar uchun qonun asosida teng huquq, majburiyat va imkoniyatlar huquqiy kafolatlanadi. Bundan tashqari davlatning bag'rikeng munosabati har bir inson va ijtimoiy guruhning iqtisodiy farovonligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, millat va din vakillariga nisbatan toqatsizlik, hurmatsizlik va tahqirlashlarning oldini olishga qaratilgan tizimli ishlarni muntazam ravishda olib borishda yaqqol namoyon bo'ladi[6].

Asrlar mobaynida o'lkamizning shahar-u qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelgan. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'i nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular

yurtimiz aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

Ko'pgina davlatlar dunyoviy demokratik davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilgan holda davlatning dinga va diniy tashkilotlarga bo'lgan munosabatini amalga oshirish mexanizmlarini yaratish masalasiga turlicha yondashadi. Shu nuqtai nazardan, bir nechta zamonaviy dunyoviy davlatning modellarini tahlil qilishga harakat qilamiz[7].

Amerika modeli. Dunyoviy davlatning ushbu modeli o'z xarakteriga ko'ra ancha liberal va din erkinligini maksimal darajada ta'minlashga harakat qiladi. Bu, avvalambor, tarixiy faktorlar asosida tushuntiriladi, ya'ni, Amerika xalqining immigrant ekanligi, u yoki bu konfessiya nuqtai nazaridan chuqur tarixga ega emasligidir. Shuning uchun bu yerda "qadriyat" masalasi amaliy jihatdan ahamiyatga ega emas. Shu bilan birga, biz dinni davlatdan to'liq ajratilganligini aniqlay olmaymiz. Bundan tashqari, xristian dini ijtimoiy kuchlarning mavjud moslashuvini va umuman, mamlakat madaniyatining rivojiga ulkan hissa qo'shgan asosiy omil sifatida tan olinadi. AQShda hozirga qadar Kongress palatalari majlisi nasroniylar jamoasi tomonidan ochiladi, Prezident o'z lavozimiga kirishi oldidan ruhoniylar oldida muqaddas Injil kitobiga qasamyod qiladi, sudda, armiyada qasamyod qilishda ham nasroniylik dinining formulalari saqlab qoling.

Fransuz modeli. Dunyoviy davlatning ushbu modeli bugungi kungacha bir necha bosqichlarni bosib o'tgan, 1789-yilgi Deklaratsiyadan boshlangan, rasmiy ravishda cherkov va davlatning ajralishi e'lon qilingan. 1905-yilgacha Katolik cherkovi davlat dini bo'lib qoldi. "Konstitutsiya 1958-yilda Fransiya dunyoviy davlat deb e'lon qildi va quyidagi asosiy tamoyillarni tasdiqladi: vijdon erkinligi va din erkinligi; qaysidir cherkovning rasmiy hukmron mavqega ega bo'lishi taqiqlanadi va barcha cherkovlarning qonun oldida tengligi ta'minlanadi; diniy e'tiqodni ochiq ifodalash uchun qonuniy erkinlik beriladi. Yuqoridagi tamoyillar davlat muassasalari, xususan, maktab va ta'lim olish huquqi bilan to'ldiriladi". Fransiya xos xususiyat shundan iboratki, "integral" dunyoviylik davlat organlari shakllanishi va faoliyatining rasmiy-huquqiy va mazmun jihatdan ajralmas qismiga aylanadi. Davlat va konfessiyalarning munosabatlarida davlatning tartibga soluvchi tashkilot sifatida passivligini nazarda tutadi. Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish uchun davlat cherkovlarning erkinligi va mustaqilligini tan oladi hamda fuqarolarga davlat muassasalari va binolarida diniy xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi. Shuningdek, fuqarolarning farzandlarini otalarining e'tiqodlari asosida tarbiyalash huquqi ta'minlanadi va davlat maktablarida diniy darslar o'tilishiga imkon beriladi[8].

Bizning fikrimizcha, axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishda diniy tashkilotlarning faoliyatini tartibga solishda davlatning roli maksimal darajada passiv bo'lgan model, fuqarolarning erkinligi va huquqlari yuqori darajada himoyalangan sharoitda – ya'ni kuchli fuqarolik jamiyati mavjud bo'lgan mamlakatlarda samarali bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda fuqarolik jamiyati diniy tashkilotlarning faoliyatini nazorat qilish va tartibga solish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Nemis modeli. "Germaniyada 1949-yilda qabul qilingan Konstitutsiya davlat va konfessiyalar munosabatining huquqiy asosi hisoblanadi. Asosiy qonun quyidagi prinsipial holatlarni o'z ichiga oladi: "...davlat cherkovi bo'lmaydi. Diniy jamiyatda birlashmalarning erkinligi kafolatlanadi. Diniy jamiyat uyushmalar faoliyatiga hech qanday cheklov qo'yilmaydi".

Barcha demokratik davlatlarda insonning qaysi dinda bo'lishidan qat'iy nazar, o'z dini, e'tiqodiga, urf-odatlariga, fikrlariga, so'z erkinligiga tajovuzsiz yashashini himoya qiluvchi va qilayotgan qonunlar mavjud.

Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'on"da ham "Dinda majbur qilish yo'q" (Baqara surasi, 256-oyat), "Sizlarga o'zlaringizni diningiz, Menga o'zimning dinim" (Kofirun surasi, 6-oyat), "Alloh bizning Robbimizdir va sizlarning ham Robbingizdir. Bizning amallarimiz o'zimiz uchun, sizlarning amallaringiz o'zlaringiz uchundir" (Sho'ro surasi, 15-oyat), "Eslat. Albatta Sen eslatuvchisan, ular ustidan zo'ravon emassan" (G'oshiya surasi, 21-22-oyatlar), "Ularning ishlari o'zaro sho'ro-maslahatdir" (Sho'ro surasi, 38-oyat) degan oyatlari bilan 1400 yil avval demokratiya asoslari bayon qilingan"[4.628]. Aksar reaksiya hizblar va oqimlarning demokratiya asoslarini Qur'on va shariatga, islom asoslariga muvofiq yoki yo'qligini analiz qila olmay ko'r-ko'rona qarshi chiqishlari, demokratiya so'zining o'zidan talvasaga tushib qolishlari, kaltabinlik va mutaassiblikdan boshqa narsa emas. Ular o'z da'volarida G'arb demokratiyasidagi islom qonunlariga zid ba'zi g'ayriinsoniy buzuvchiliklarga bo'lgan ruxsatlarni ro'kach qiladi. Albatta, bunday g'ayriinsoniy buzuvchiliklarga ruxsat berilishiga qarshi turish lozim va bunday holatlarga G'arb davlatlarining hammasida ham ruxsat berilgan emas, balki qonunan man etilgandir. Binobarin, demokratiya dushmanlarining G'arbdagi ba'zi salbiy holatlar va kamchiliklarni ro'kach qilib, demokratiyaning Islom diniga zid ekanligini da'vo qilishlari mutlaqo asossizdir[9].

Musulmonlar yurti bo'lgan Afg'oniston dunyoning yarmiga narkotik yetkazib berayotgani va "mujohidlar" orasida bachchavozlik degan manfur odat mavjud bo'lgani uchun butkul islom dini va barcha musulmonlarni ayblash to'g'ri bo'lmaganiday, geopolitik manfaatlarini amalga oshirish maqsadida "demokratiya eksporti" bilan shug'ullanuvchi va uni daromad manbaiga aylantirib olgan bir guruh qora kuchlarning siyosiy o'yinlari sabab butkul demokratiyani ayblash noto'g'ri. Faqat, o'zaro hurmat asosida tushuntirish, maslahat, munozara va muhokama hamda bag'rikenglik tamoyillariga kutilgan yaxshi, samarali natijalar berishi rivojlangan davlatlar tajribalarida ham yaqqol ko'rinib turibdi. Afsuski, hozirgi o'qitilayotgan ba'zi mavjud islomiy ta'limotlarda insonning aqlini, tushunchasini, ixtiyorini hurmat qilish emas, zo'ravonlik tushunchasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Ba'zi oqimlar muvaffaqiyatli davlat tizimini yaratish kaliti faqat islomiy davlat qurish, majburiy tarzda islom hukmlarini joriy etishda, deb hisoblaydi. "Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz"[5.253].

Shuni unutmaslik kerakki, zamonaviy davlatlararo munosabatlarning asosiy xususiyatlaridan biri dinni ijtimoiy hayotga, siyosatga singdirishga intilishdir. Aslida bu, odamlarning siyosiy faoliyati diniy g'oyalari bilan tobora ko'proq bog'lanishini anglatadi. Bunday turtki paydo bo'lishining muqarrarliligi diniy dunyoqarashning qanchalik yaxlit va xolisligiga ham bog'liqdir. Diniy e'tiqodga ega bo'lgan inson hayotining asosi bo'lgan imon, uning ijtimoiy va shaxsiy hayotining barcha jihatlarini belgilaydi. Natijada, e'tiqodli insonlar siyosiy hayotda qanchalik faol bo'lishsa, ularning diniy g'oyalari xalqaro munosabatlarga shunchalik ta'sir ko'rsatadi.

Diniy g'oyalarning jahon siyosati ta'siriga oid yorqin misollardan biri sifatida din niqobidagi ekstremistik ta'limotlar va terrorizmni keltirishadi. Shuningdek, nasroniylik, islom va yahudiylilikni radikal ruhda o'qitilishi antisemitizm va sionizmni keltirib chiqarayotganligi ham aytib o'tilgan. Bugungi kunda u yoki bu diniy an'analar atrofida paydo bo'lgan boshqa

e'tiqodga asoslangan g'oyalar mavjud. Buning natijasida, ko'pincha dinlar siyosat bilan o'zaro munosabatlarda tinchlik va inson hayotiga tahdid soluvchi g'oyalarni ishlab chiqarishga qodir bo'ladi. Shu bilan birga, jamiyatni boshqarishda dinning ijobiy roli va uning mohiyatida tug'iluvchi ezgulik g'oyalardan samarali foydalanish mumkin, faqat bunda sekulyarizm tamoyiliga asoslanish eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Bugungi kunda erkinlik to'g'risida har qachongidan ham ko'p fikr yuritilmoqda. Ammo, qizig'i shundaki, bugungi kunda insonning shaxsiy erkinligiga tahdid soladigan jarayonlar ko'proq sodir bo'lmoqda. Erkinlikni yuksak qadriyat deb hisoblaydigan ba'zi davlatlar va xalqaro hamjamiyatlar an'anaviy dinga e'tiqod qiluvchilarning axloqiy normalariga zid keluvchi ijtimoiy-siyosiy normalarni qabul qilmoqda. Bir tomondan, bu jamiyatda insonning shaxsiy hayotiga hech kim tajovuz qilmaydi, ammo ikkinchi tomondan, inson o'z e'tiqodiga zid keluvchi me'yorlarni qabul qilishga majbur qilinmoqda. Bunday me'yorlarning paydo bo'lishi dunyodagi ko'plab mamlakatlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday qadamlar xalqaro munosabatlar darajasida ham ko'zga tashlanayotganligini kuzatish mumkin. Agar bugun qandaydir me'yor G'arb mamlakatlarida qabul qilinsa, ertaga uni qabul qilish va bajarish boshqa davlatlardan ham talab qilinmoqda[10].

Davlat, jamiyat va din o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishda sekulyarizm tamoyiliga tayanish eng muhim omil hisoblanadi. Sekulyar davlatning afzalliklari, ayniqsa ko'pmillatli va ko'p konfessiyali mamlakatlarda, milliy yoki dini mansublikka asoslangan holda alohida guruh yoki ularning vakillariga imtiyoz berilmasligida namoyon bo'ladi. Millati va dini qat'iy nazar barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari teng darajada ta'minlanadi; aks holda manfaatlar muvozanati buzilib, ijtimoiy beqarorlik yuzaga kelishi mumkin. Shu bilan birga, dunyoviylik davlatga aholining turli guruhlari manfaatlarini obyektiv baholash va qarorlar qabul qilish imkonini beradi, chunki neytral pozitsiya davlat boshqaruvini manfaatdor guruhlarining bosimidan himoya qiladi.

Diniy birlashmalarning davlatdan ajratilganligi bevosita davlatning "neytral"ligi bilan to'ldirilishini yaxshi tushungan tadqiqotchi Ye.M.Miroshnikovning fikricha, "davlatning diniy tashkilotlar va dunyoviy birlashmalarga bo'lgan munosabatini muvozanatda saqlovchi "neytrallik"ning ham o'ziga xos uchta atributlarini sanab o'tgan:

- 1) aralashmaslik sifatidagi neytrallik. Davlatning oliy hokimiyatga ega ekanligidan foydalanib, diniy idoralarning faoliyatiga aralashishlari taqiqlanadi. O'z navbatida bu diniy idoralarning o'zini-o'zi boshqarishi va o'zini-o'zi isloh qilishini talab etadi.
- 2) identifikatsiya bo'lmagan neytrallik. Identifikatsiya bo'lmaslik aralashmaslik tushunchasi bilan bir xil ma'noda kelmagan. Ya'ni, davlat "aralashish"i mumkin, faqat "identifikatsiyalashmagan" holatda aralashishi mumkin. Davlat qonunlar chiqarishi, shuningdek, diniy idoralarga aloqador qonunlar ham chiqarishi mumkin, ammo, ularning ichki hayotiga aralashmaydi. Bu cherkov faoliyatiga qiziqish uyg'otishi va unga yordam berishi mumkin, lekin buni bevosita davlat faoliyati deb bo'lmaydi.
- 3) imkoniyatlar tengligiga asoslangan neytrallik. Hokimiyat har bir insonning biror dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligidan qat'iy nazar teng huquqliligi prinsipini ta'minlashi kerak.

Imkoniyatlar tengligi, tadqiqotchi Ye.M.Miroshnikovning fikricha, har bir diniy tashkilot o'zining qarori bo'yicha aniq harakatlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishini bildiradi. Shu bilan birga, biror bir diniy uyushmaga qo'shilishga harakat qilsa, agar boshqalari bunday

huquqqa ega bo'lsalar ham, imtiyozdan voz kechish sifatida betaraflikni tan olmaydi. Imtiyozlar umumiy qoidalar doirasida o'ziga xos tartibga solishning maxsus huquqi sifatida tushuniladi"[6.83-84]. Demak, "diniy uyushmalarning davlatdan ajratilgan"ligi dunyoviy davlatning asosiy atributlaridan biri hisoblanadi.

Nemis olimasi Gudrun Kremer ta'kidlashicha, "xalifalik davlatini qurish tarafdorlari "Xudo tomonidan belgilangan taqvodorlarga hayotning me'yorlari yangi tartibda emas, balki ilohiy amrlar va taqiqlar faqat "islom nizomi" (nizom al-islom) doirasida to'liq amalga oshadi" degan g'oyani isbotlashga urinadilar"[7.55]. Ammo, masalaning nozik tomoni shundaki, shariat talablarini musulmon fuqarolar bajarishi uchun muayyan davlat va institut maqomiga ega bo'lgan tashkilot taqozo etiladi. Yakka tartibda, individual tarzda islom arkonlarini ayrim siyosiy targ'ibotlar sharoitida ado etish qiyinchiligi yoki sobiq SSSRda bo'lgani kabi diniy e'tiqod erkinligi siquv va ta'qib ostida bo'lishi diniy davlatchilikka, uning huquqiy kafolatiga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bugun Islom dini jamiyatda nisbatan yuqori maqomda bo'lgan Misr, Liviya, Suriya, Iroq va boshqa davlatlarda ham ma'lum bir kuchlar dunyoviy davlat o'rniga shariat qonunlariga asoslangan diniy davlat – xalifalikni tanlashga da'vat qilmoqda.

Xulosa. Din va davlat o'rtasidagi muvozanatga faqat ma'rifiy, demokratik davlat sharoitidagina erishiladi. Bu degani, demokratik davlat sharoitida vijdon erkinligi huquqiy jihatdan ta'minlanadi, diniy e'tiqod taqiq va ta'qib ostida bo'lmaydi. Biroq, dinning siyosiylashuviga, ya'ni, siyosiy hokimiyat darajasiga erishishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunday muvozanatni saqlab qolish uchun dunyoviy davlat tashkilotlari tizimida din, e'tiqod ishlari bilan shug'ullanuvchi alohida institut bo'lishi taqozo etiladi.

Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning yangi strategiyasida din, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi shakli butun ijtimoiy-siyosiy makonni qayta tashkil etishni ifodalaydi. Bu esa ijtimoiy taraqqiyot imkoniyatlari haqidagi ma'lumotni kengaytirishga va aniqlik hamda universallik tamoyillariga asoslangan munosabatlarni rag'batlantirishga bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh. M. Mirziyoyev, *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir*, vol. 2, Toshkent, O'zbekiston: O'zbekiston, 2018, 253 b.
2. M. O. Shakhov, Ed., *Veroispovednaya politika Rossiyskogo gosudarstva: Uchebnoye posobiye*, Moscow, Rossiya: Izd-vo RAGS, 2003, p. 201.
3. E. M. Miroshnikova, *Gosudarstvo i netraditsionnyye religioznyye dvizheniya v FRG*, Tula, Rossiya, 1997, p. 1.
4. Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, *"Qur'oni Karim" va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimai*, Toshkent, O'zbekiston: Hilol Nashr, 2017, 628 b.
5. Sh. M. Mirziyoyev, *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir*, vol. 2, Toshkent, O'zbekiston: O'zbekiston, 2018, 253 b.
6. E. M. Miroshnikova, *Mirovoy opyt gosudarstvenno-tserkovnykh otnosheniy*, Moscow, Rossiya, 1999, pp. 83–84.
7. G. Kremer, "An'anaviy musulmon jamiyatida diniylik va dunyoviylik muammosi," in *Islom va dunyoviy-ma'rifiy davlat*, Toshkent, O'zbekiston, 2003, p. 55.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).